FALSAFA

UDK: 17, 2.01, 17.01.02 DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss4/a29

INSONLARNI QADRLASH VA UNI MA'NAVIY-AXLOQIY JIHATDAN QO'LLAB-QUVATLASHDA DIN VA FALSAFANING O'RNI

РОЛЬ РЕЛИГИИ И ФИЛОСОФИИ В ЦЕННОСТИ ЛЮДЕЙ И ПОДДЕРЖКЕ ИХ С ДУХОВНО-ЭТИЧЕСКОГО АСПЕКТА

THE ROLE OF RELIGION AND PHILOSOPHY IN APPRECIATING PEOPLE AND SUPPORTING THEM FROM THE SPIRITUAL AND ETHICAL ASPECT

Shodiyev Jahongir Jo'raqulovich[1]

[1]**Shodiyev Jahongir Jo'raqulovich** — O'zbekiston milliy universiteti doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada inson qadri va huquqlari umumbashariy, milliy davlat va huquq tushunchalarini o'zida mujassamlashtirishi hamda falsafani bilishdan maqsad olamni anglash, g'oyaviy, ruhiy barkamollikka erishish va oqilona yashash qonunlarini o'rganish ekanligi haqida bayon qilingan.

Аннотация

В этой статье говорится, что человеческое достоинство и права воплощают в себе концепции универсальности, национального государства и права и что цель изучения философии - познание мира, достижение идейного и духовного совершенства, изучение законов разумной жизни.

Abstract

This article states that human dignity and rights embody the concepts of universality, national state, and law, and that the purpose of learning philosophy is to understand the world, to achieve ideological and spiritual perfection, and to study the laws of rational living.

Kalit so'zlar: *Inson qadri, ma'naviy-huquqiy meros, inson huquqlari, barqaror taraqqiyot, ma'naviy yetuklik.*

Ключевые слова: *Человеческое достоинство, духовно-правовое наследие, права человека, устойчивое развитие, духовная зрелость.*

Key words: *Human dignity, spiritual and legal heritage, human rights, sustainable development, spiritual maturity.*

KIRISH

Falsafiy qarashlar va ta'limotlardan qaysi biriga e'tiqod qilish kerak degan masalani yechishda siz biron-bir fikrga, qarorga tabiatan moyilligingiz, dunyoqarashingiz tabiiy aql-idrokingiz, fahm-farosatingiz, zakovatingiz darajasida idrok etasiz va muayyan xulosaga kelasiz. Hammaning bir qarorga, xulosaga kelishi mumkin emas, chunki kishilarning tushunchasi har xil, turlicha. Agar buning aksi bo'lganda edi, unda tabiatning qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonunga putur yetgan hamda taraqqiyot sekinlashib, yemirila boshlagan bo'lur edi. Alloh taolo har bir insonga taqdir va qismat bilan birga iroda, inon ixtiyor va faoliyat erkinligini ham berib qo'ygan. Inson o'z ixtiyori bilan qilgan ishlariga, tanlagan yo'liga, yaxshi yoki yomon jihatlariga qarab hukm qilinadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Falsafani bilishdan maqsad olamni anglash, g'oyaviy, ruhiy barkamollikka erishish va oqilona yashash qonunlarini o'rganishdir.

Mashhur qadimgi yunon faylasufi Pifagordan so'ragan ekanlar: "Sen donishmanmisan?" U kamtarlik bilan: "Yo'q, men donishmand emasman. Men bor-yo'g'i donishmandlikni sevuvchi, ya'ni faylasufman", deb javob bergan ekan.

Buyuk donishmand Suqrotning fikricha, faylasuf aqli juda o'tkir, bilim doirasi nihoyatda keng va bilimlarini hayotiy tajribalarga bog'lay oladigan Xudo yarlaqagan kishidir.

Teran va har tomonlama fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan oliy ma'lumotli oqil kishi faylasuf, ya'ni falsafiy fikr sohibi deyish mumkin. Falsafa, ontologiya (Borliq haqida ma'lumot), gnoseologiya (Borliqni bilish nazariyasi), ruhiyatshunoslik (psixologiya), mantiq (logika), etika, estetika, sotsiologiya va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Olimlarimiz oldida kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb katta masala turibdi, u ham bo'lsa sovetlar davrida xalqimizga zo'rlik bilan tiqishtirilgan bir tomonlama ta'limot bo'lgan falsafani sotsializm va kommunizm sarqitidan tozalab, yangicha, "aynimagan" falsafani, jahon falsafasi tarixini, falsafiy ta'limni ommaga yetkazishdir.

FALSAFA

Falsafa boshqa fanlar singari umumbashariy fandir, unda turli mamlakatlardagi faylasuflarning, fozil kishilarning, donishmandlarning chuqur mashaqqatli aziyatli mehnatlari, izlanishlari tufayli falsafiy tushunchalar, dunyoqarashlar, mayllar tamoyillar vujudga kelgan. Shuning uchun uni butunlay yangilash emas, balki takomillashtirish kerak.

Falsafa endilikda nafaqat dunyoqarashni, balki u bilan bog‘liq holda iymon va e’tiqodni ham shakllantirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymog‘i lozim. Chunki iymon, etiqod jamiyatda ma’naviyatni qaror toptiradigan odamni haqiqiy insonga aylantirish uchun qudratli ruhiy vositadir.

Abu Nasr Forobiy Aristotelning noaniq jumlalarini qo‘llashga uch narsa sababchi deb ko‘rsatadi:

1. O‘quvchining falsafa ilmini o‘rganishga qobiliyatini sinab ko‘rish;

2 Falsafani barchaga tushunarli qilib emas, balki unga munosib odamlargagina tushunarli qilib berish uchun;

3. Fikrni qiyin masalalar bilan mashq qildirish uchun.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tarbiya borasida u muallim shogirdga nisbatan o‘ta hokimlikka (qattiqqo‘llikka) ham bo‘shliqqa ham yo‘l qo‘ymasligi lozim, chunki o‘ta hokimlik shogirdda muallimga nisbatan nafrat uyg‘otadi, agar shogird muallimning bo‘shligini sezsa, unda muallimga va o‘qiyotgan ilmiga nisbatan sovish va mensimaslik paydo bo‘ladi, deb aytgan.

Davlatning vazifasi insonlarni baxt-saodatga olib borishdir, bunga ilm va yaxshi, zagu axloq yordamida erishiladi, deb ta’lim beradi.

I. Karimov ta’biri bilan aytganda. “Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo‘lmaydi bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi”.

Sovetlar davrida, barcha sohalardagi kabi, falsafa fani ham “qizil imperiya” tashviqoti quroliga aylantirildi, falsafa faqat bir tomonlama aks ettirildi. Xalqqa oqni qora, qorani esa oq deb tushuntirildi. K.Marks, F.Engels hamda V.I.Lenin kabi o‘ta moddiyyunchilar, daxriylar (xudosizlar) dunyoqarashlariga, falsafiy ta’limotlariga to‘g‘ri kelmaydigan barcha mashhur faylasuflarning qarashlari va ta’limotlarini behayo parcha asossiz, noto‘g‘ri, xato, reaksion ta’limotlar deb e’lon qildilar va bunday mahdudlikni jamiyatga qisman bo‘lsa-da majburan singdirishga muvaffaq ham bo‘ldilar.

Ingliz faylasufi - Frensis Bekon xudosizlik haqida shunday degan: “Yuzaki faylasuflik inson aqlini xudosizlikka yetaklaydi. Falsafani chuqur o‘rganish esa inson idrokini dinga do‘naltiradi”.

Umuman, hayotda, ko‘z o‘ngimizda chegarasi yo‘q nima bor o‘zi? Hamma narsaning chegarasi bo‘lganidek, aqlimiz, ongimiz, tafakkurimiz ham chegaralidir. Aqlimiz yetadigan chegaradan u yog‘ini cheksizlik (olami cheksiz) deyiladi. Ammo bu atama shartli bo‘lib, aqlimiz borib yetadigan chegaraning u yog‘ini cheksizlik deb emas noma’lumlik (sir) deb atamoq joizdir. Chunki mantiqan “cheksizlik”, “noma’lumlik” bo‘lib chiqmaydimi axir?

Bu haqda Umar Xayyom deydi:

Biz kelib ketuvchi to‘garak jahon
Na boshi ma’lum na so‘ngi ayon.
Hech kimsa rostini aytib berolmas:
Biz qaydan keldig-u, keturmiz qayon?

Aytgan: o‘sha idealistlar aytgan birlamchi ruh, ongning o‘zi ham materiya deb. Xo‘sh, o‘sha materialistlar qaysi tajribaga asosan shunday deganlar? Bu isbotsiz nazariyada asos tugul, mantiq ham ko‘rinmaydi! Materiya materiyani, tabiat tabiatni yarata olmaydi, chunki olamni, dunyoni yaratguvchi fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Tabiatning bunday qobiliyatga ega emasligi bu nazariyani chippakka chiqaradi.

Materiya, tabiat fikrlovchi, yaratguvchi Alloh taolo belgilab qo‘ygan tartib, qonun-qoidalar bo‘yicha tug‘iladi, yashaydi, o‘sadi, rivojlanadi, yuksaladi, so‘ngra pasayadi, tanzulga yuz tutadi, o‘ladi, yo‘q bo‘lib, keyin yana tug‘iladi, paydo bo‘ladi va hokazo. Shunday doiraviy aylana bo‘ylab harakatlanaveradi. Bamisoli quyoshdan nur qanday ajralib chiqsa, Alloh taolodan ham moddiyat ana shunday ajralib chiqqan, deb haqiqatga birmuncha yaqin keladi buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sino.

Moddiyunchilar esa fan faqat ko‘zga ko‘rinib turgan, aql kuchi yetadigan, tajriba orqali bilinadigan ishlarnigina yecha olishini tushunib yetmadilar. Butun Borliqni, majudotni, shu jumladan,

modda va ongni, ruhni yaratgan Alloh taoloning “Parvardigori olam” faslida aytib o‘tilgan sakkiz sifatini bilmaganliklari yoki jarlik bilan tan olmaganliklari bois bu masalada xato ketganlar.

Olamlar Parvardigorining mohiyatiga fan, falsafa yeta olmaydi, bunga faqat Alloh taolo O‘zi yorlaqagan, tanlangan insonlar: payg‘ambarlar va avliyolargagina bildirgan botiniy ilm ilmi-g‘ayb, laduniy ilm orqali yetishish, yetganda ham qisman yetishish (g‘ayb Alloh taolo tomonidan sir tutiladi) mumkinligi ma’lum bo‘ldi. Payg‘ambarlar va valiylar buyuk Alloh taoloni, haqiqatni muroqaba-avval mantiqiy muhokama qilmasdan hamda intuitsiya, haqiqatni bevosita payqash, aqldan ustun turadigan mistik bilish qobiliyati orqali payqaydilar. Bilishning bu turi payg‘ambarlar va avliyolarga xos bo‘lgan maxsus bilish usuli deb ham aytiladi.

Zohiriy ilm-fan bu borada ojizlik qiladi. Chunki fan, yuqorida aytganimizdek, faqat tajriba bilan bilinadigan ko‘rinib turgan konkret hodisalar, faktlarning ikkilamchi fizik sabablarini ochib beradi, xolos. Lekin u birlamchi, g‘ayriilmiy bo‘lgan taqdirlarni hal qiluvchi va sabablar sababchisining mohiyatiga yeta olmaydi. Zohiriy ilmga tabiatshunoslik, tibbiyot, falsafa, mantiq, matematika, fizika jo‘g‘rofiya, etika, estetika, ontologiya, gnoseologiya, sotsiologiya, ruhiyatshunoslik va shu kabi aniq hamda gumanitar fanlar kiradi. Bu fanlar ko‘rinib turgan tabiat, hodisalar, voqealar, jismlar haqida, ularning tabiati, xossasi to‘g‘risida tushuncha beradi. Lekin zohiriy ilmning bir o‘zi haqiqatni yechishga ojizlik qiladi. Zohiriy ilm, botiniy g‘ayb ilmi bilan birlashgandagina, chin, ya’ni biz izlagan haqiqat sirlari ochila boshlaydi.

Ma’naviyat va moddiy hayot uyg‘unligi masalasida, Yurtboshimiz quyidagicha to‘xtalib o‘tganlar: “Ma’naviyatning inson va jamiyat hayotdagi mohiyati va ahamiyati haqida fikr yuritganda, bu borada asrlar davomida qizgin bahs-munozaralarga sabab bo‘lib kelayotgan bir masalaga alohida to‘xtalib o‘tish lozim, deb o‘ylayman. Ya’ni, odamning kundalik hayoti va faoliyatida moddiy va ma’naviy asoslar bir-biriga nisbatan qanday o‘rin tutishi, ularning qaysi biri ustuvorlik kasb etishi haqida turli-tuman, ba’zan esa ziddiyatli fikr va qarashlar mavjud bo‘lganini va bunday tortishuvlar hozirgacha davom etayotganini kuzatish qiyin emas.

Bashariyat tarixida yashab o‘tgan ne-ne buyuk allomalar bu masala bo‘yicha ko‘plab asarlar yaratib qoldirgani ham shundan dalolat beradi. Misol uchun, qadimiy hind, xitoy yoki yunon faylasuflarini olasizmi, o‘rta asrlardagi Sharq va G‘arb Uyg‘onish davri namoyandalarini olasizmi, islom olamida nom qozongan mutafakkir zotlarni olasizmi - ularning ilmiy merosida moddiy va ma’naviy olam o‘rtasidagi munosabatlarga keng o‘rin berilganini ko‘rish mumkin. Masalan, antik davr faylasuflari bo‘lmish Sokrat va Platon, Epikur va Demokrit xitoy donishmandi Konfutsiy va boshqa allomalarning bu boradagi nazariy qarashlari fan tarixidan yaxshi ma’lum. Ularning ayrimlari ruhiy olamni birlamchi deb bilsa, ba’zilari esa moddiy olamni asosiy o‘ringa qo‘yadi.

Ana shunday tushuncha va tasavvurlar asosida keyinchalik materializm va idealizm kabi ta’limotlar maydonga chiqdi. Uylaymanki, bu o‘rinda ularning tarix, ma’no-mazmuni haqida batafsil to‘xtalib o‘tirishning hojati bo‘lmasa kerak.

Albatta, bunday falsafiy yondashuvlarlarning har biri o‘z davridagi mavjud siyosiy ijtimoiy vaziyat, humron mafkura, jamiyatning huquqiy va madaniy saviyasi, turli sotsial gurux va toifalarning qarashlarini ifoda etishiga xizmat qiladi. Ijtimoiy taraqqiyotning turli davrlarda bunday sof nazariy masala doirasidan chiqib, ma’lum bir tuzum yoki davlatning rasmiy mafkurasi maqomini ham olgan. Buning tasdig‘ini uzoqqa bormasdan yaqin tariximizda - sho‘ro zamonida materialistik qarashni ustun qo‘yish natijasida materiya birlamchi, ong esa ikkilamchi, degan tamoyilning hukmron dunyoqarash darajasiga ko‘tarilgani, buning oqibatida insonning ma’naviy qadriyatlari, ayniqsa, uning milliy va diniy tuyg‘ulariga bepisand qarab kelingani misolida ham ko‘rish mumkin. Ushbu masalaga chuqurroq va atroflicha nazar tashlaydigan bo‘lsak, avvalo shuni aytish kerakki, bu ko‘hna dunyo, biz yashayotgan hayot yagona, yaxlit bir voqealikdir. Shunday ekan, moddiy ehtiyojlarni insonning ruhiy olamiga qarama-qarshi qo‘yish, ularning birini ustun deb bilgan holda, tiriklikning asosiy maqsadi sifatida qabul qilish qandaydir bir yoqlama qarash ifodasi, deb aytsak, xato bo‘lmaydi. Qolaversa, bu masalaga bunday keskin yondashuv, xususan, odamning ruhiy dunyosini mensimaslik, uni ikkilamchi o‘ringa qo‘yish oxir-oqibatda jamiyat hayotida inqirozga olib kelishi muqarrar ekani tarixda ko‘p marotaba isbotlangan.

Bir so‘z bilan aytganda, inson o‘z timsolida ham moddiy, ham ma’naviy xususiyat va alomatlarni mujassam etgan noyob xilqat, yaratganning buyuk va sirli mo‘jizasidir. Shuning uchun ham uning ichki dunyosi, unga ato etilgan fazilat va xislatlarni oxirigacha anglash, tushunishning o‘zi o‘ta murakkab bir masala.

Mana shunday qarash va fikrlarni umumlashtirib, insonga xos orzu-intilishlarni ruyobga chiqarish, uning ongli hayot kechirish uchun zarur bo‘lgan moddiy va olamni bamisoli parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslasak, o‘ylaymanki, o‘rinli bo‘ladi.

Falsafa kundalik hayotda to‘g‘ri fikrlay olish, mantiqan to‘g‘ri mushohada yuritish usullari va tamoyillarini o‘rgatadi. Shunday bo‘lsa-da, falsafaga qattiq berilib ketishning ham foydasi yo‘q.

Falsafa biz insonlar hayotda qanday qilib to‘g‘ri va oqilona yashashni bilishimiz uchun hayot qonun-qoidalarini o‘rganishimizda kerak bo‘ladi. “Falsafani o‘rganishdan asosiy maqsad yagona, oliy yaratguvchini bilishdir”,- degan edi o‘z vaqtida sharqning buyuk faylasufi Abu Nasr Forobiy.

Ta’kidlab o‘tish joizki, Parvardigori olam to‘g‘risida bahslashishni, uning xususida chuqur ketishlikni deyarli barcha dinlar man qiladi. Chunki, yuqorida aytib o‘tilgan sabablarga ko‘ra, ilmiy bilish, fan, haqiqatni teran ochib berishga qodir emas. Yana qaytaramiz: Aflotun “Falsafaga haddan ortiq berilmoqlik ziyondir”, deb doimo takrorlar ekan. Haddan oshishni Islom dini ham yoqlamaydi. Payg‘ambarimiz Muhammad mustafo sallallohu alayhi vassallam ham bir qancha muborak hadislari orqali bizni bu yo‘ldan qaytarganlar: “Islom aqlning haddan oshishligini ham, orqada qolishligini ham istamaydi” “Dinda haddan tashqari g‘uluv (chuqur) ketmanglar. Chunki sizlardan ilgari o‘tgan qavmlar dinda g‘uluv ketganliklari sababli halok bo‘lganlar”.

“Ishlarning xayrlisi, fazilatlisi o‘rtachasidir”.

Yirik Islom ilohiyotchisi, faylasuf-Imom G‘azzoliy Islom ilohiyoti tizimini ishlab chiqqan va uni falsafiy asoslagan. U dunyo qonuniyatlarini aql orqali bilish mumkinligini e’tirof etgan. Alloh taoloni aql orqali to‘liq anglash mumkin emas, uni maxsus ruhiy, jismoniy psixofizik harakatlar - sig‘inish va ibodatlar orqali anglash mumkin deb hisoblagan.

Biz bu davr Uyg‘onish madaniyatining xarakterli tomonlari sifatida quyidagi xislatlar, belgilarni ko‘rsatishimiz mumkin: Dunyoviy ilmlarga intilish, din va diniy bilimlarni jamiyat, insonlar manfaati nuqtai nazaridan talqin etish;

Turli xalqlarning madaniy-ma’naviy merosi, o‘tmish madaniy qadriyatlaridan (arab, eron, yunon madaniyati boyliklari) foydalanish.

-Tabiatni, mavjud hayotni, mavjudotni o‘rganishga qiziqishning kuchayishi, uning sirlarini ochishga va unda foydalanishga intilishning ortib borishi, shu munosabat bilan tabiatshunoslik ilmlarning rivojlanishi;

- Bilishda aqlni mezon deb bilish, aqliy bilish, ratsionalistik usul, ilmiylik rolining oshib borishi;

- Insonga muhabbat, uning axloqiy, aqliy xislatlarini, qobiliyatlarini o‘rganish va fazilatlarini ochib berishga intilish, mantiq ilmiga katta e’tibor berish, komil insonni tarbiyalash, yetuk fozil jamoa haqidagi fikrlarni asoslab berish;

- Diniy tasavvur, diniy ta’limotlar rivojida diniy-axloqiy mavzuning ustunligi, inson xulqi, manfaatlarining diniy g‘oyalarda yetakchi mavzuga aylanishi, ichki ma’naviy kamolot, Alloh taologa sub’ektiv ichki mukammallashuv, ma’naviy-ruhiy ko‘tarilish, yuksalish yordamida erishuv va uning sifatlariga muyassar bo‘lishga qaratilgan faoliyat;

- Og‘zaki va yozma so‘zga katta e’tibor, uning ijtimoiy axloqiy qudratini kuylash ta’riflash, she’riyat, filologiya, badiiy madaniyatning yuksak rivoji, so‘z san’ati, ritorika (al-xitoba) bilan shug‘ullanish madaniylikning muhim belgisiga aylanib borishi. Bu xislatlar o‘sha davr ilg‘or ma’naviyatining xarakterli xususiyatiga aylanadi.

O‘ylashimizcha, ana shunday falsafa asosida milliy, ma’naviy va umuminsoniy qadriyatlar mujassamlangan “O‘zbekistonning mustaqil milliy mafkurasi”ni yaratish kerak.

XULOSA

Shunday qilib, O‘zbekiston taraqqiyotining ma’naviy-axloqiy negizlarini yaratishda fikrlar xilma-xilligiga asoslangan siyosatni amalga oshirish va ijtimoiy fanlar, avvalo falsafa fanining ana shunday nazariy asoslari va metodologiyasini yaratishga e’tibor berish lozim. Yangi yaratiladigan falsafa, yuqorida aytganimizdek, mohiyatan insonga, insonning iymon-e’tiqodini shakllantirishga, uni yuksak axloqli shaxs sifatida kamol toptirishga yo‘naltirilgan bo‘lmog‘i kerak.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Абдулҳайр Абдураҳмонов. Саодатга эдтувчи билим. 432-бет. Т. “Мовароуннаҳр” 2003.
2. Ислом Каримов. Юксак маънавият-енгилмас куч. 62 бет. Т. Маънавият 2008.
3. Бэкон Френсис (1561-1626)–ингилиз файласуфи. Қиролликда “Лордканцлер” лавозимида ишлаган.

4. М.М.Хайруллаев. Ўрта Осиёга илк уйғониш даври маданияти. 71-72 бетлар. Тошкент. Ўзбекистон Республикаси Ф.А. “Фан” нашриёти, 1994 й.

5. Инсон ҳуқуқлари: махсус курс/ О.Ҳусанов,О.Каримова, Х.Азизов ва бошқ; масъул муҳаррир О.Ҳусанов.–Тошкент: Шарқ,1997.–144

6. Пўлатова Б. Инсонийлик ва инсон ҳуқуқлари:Услубий қўлланма.–Тошкент:Адолат,1999.–112 б.

7. Абдукаримов Ҳ. Инсон манфаати ҳамма нарсадан устун / Ўзбекистон мусулмонлар идораси.–Тошкент: Movaronnahr, 2017.–64 б.

8. Абдурахмонова Н. Х**.** Инсон ҳуқуқлари – олий қадрият // Фалсафа ва ҳуқуқ. – 2014. – № 1. – Б. 11–12.

9. Shodiyev, J. J. (2020). U THE QUESTION OF HUMAN DESTINY AND FREE IN THE PHILOSOPHICAL VIEWS OF OMAR KHAYYAM. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, *2*(2), 197-202.

10. Shodiev Jahongir Jurakulovich. Interpretation of moral facts in the opinions of Umar Khayyam. International Engineering Journal For Research & Development 2020/4/16.

11. Jurakulovich, S. J. (2023). The role of the national idea in increase of human values. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, *3*(10), 1160-1164.

12. Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich. Inson qadri va uning huquqlari eng oliy qadriyat: tarixiy-huquqiy meros. Ilm sarchashmalari/ Urganch – 3.2023. 19-21.

13. Shodiyev, J. J. (2023). THE ROLE OF SCIENTIFIC THINKING AND MENTAL DEVELOPMENT IN IMPROVING HUMAN DEVELOPMENT AND VALUE. *Innovative Development in Educational Activities*, *2*(9), 251-261.

14. Shodiyev, J. J. (2023). THE ROLE OF THE NATIONAL IDEA IN INCREASE OF HUMAN VALUES. *Innovative Development in Educational Activities*, *2*(7), 616-625.

15. Jurakulovich, S. J. (2023). PHILOSOPHICAL VIEWS OF SAGES ON HUMAN VALUES AND GLORIFYING HIM. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, *2*(16), 229-238.

16. Shodiev, J. J. (2023, June). ZNAChENIE ISTORIChESKOGO MЫShLENIYa V SOZDANII FUNDAMENTA TRETEGO VOZROJDENIYa I YeGO ZNAChENIE V UKREPLENII ChELOVEChESKIX sENNOSTEY. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 2, No. 15, pp. 124-130).

17. Jurakulovich, S. J. (2022). AGAINST IGNORANCE-FIGHTING WITH ENLIGHTENMENT THE MAIN CRITERIA IN IMPROVING HUMAN VALUE. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, *3*(10), 1160-1164.

18. Jurakulovich, S. J. (2022). ATTITUDE TO HUMAN DIGNITY IN THE PERIOD OF AMIR TEMUR AND TEMURIDS DYNASTY. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, *3*(5), 43-47.